

- пересмотреть технологии организации и управления воспитательным процессом с точки зрения требований сегодняшнего дня и усовершенствовать их с учетом содержания процесса глобализации;
- раздельный подход к сущности этих двух понятий исходя из их специфики в контексте интеграции образования и воспитания;
- организация воспитательной работы в образовательных учреждениях на основе «Концепции непрерывного духовного образования»;
- организация работы в организации и управлении воспитательным процессом на образовательных этапах на основе общечеловеческого кластерного подхода;
- совершенствование системы обеспечения качества образовательных учреждений высококвалифицированными педагогами и воспитателями;
- разработка инновационных механизмов и методов всестороннего воспитания учащихся и повышения эффективности духовной работы, определение средств и внедрение их в образовательную и воспитательную практику;
- усиление продвижения национального образования;

- разработка новых механизмов взаимодействия семьи, школы и общества в системе воспитания.

В целом, в истории узбекской педагогики вопрос воспитания во все времена изучался как актуальный вопрос. Несмотря на то, что он сложился под влиянием различных течений и процессов, богатое культурное и духовное наследие этих ученых служит основой современной концепции образования и воспитания. Сегодня узбекская педагогика развивается на основе славных общечеловеческих и национальных ценностей. Это также отражено в пересмотренном законе “Об образовании” и “Концепции непрерывного духовного воспитания”. Анализ национального опыта в области педагогики, творческое освоение опыта развитых стран обеспечивает развитие образования и воспитания в соответствии с его статусом в качестве социальной концепции. Чем быстрее и раньше внедряются в содержание педагогики изменения в обществе, темпы развития, новые социальные процессы, наблюдаемые на мировой арене, тем современнее и актуальнее будет наука. Для современной педагогики целесообразно выбирать факторы, средства и методы, совершенствующие воспитательный процесс, в соответствии с содержанием процессов глобализации в мире.

Литература

1. Концепция непрерывного духовного воспитания. –Ташкент: 2020.
2. Махкамов У., Исмоилова Д. Воспитание – колыбель великой духовности. Academic research in educational sciences, VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020. 4.804.
3. Сарсенбаева Р.М. Методы воспитательной работы. Учебно-методический комплекс. (Рекомендовано к публикации Постановлением Совета ТГПУ № 1/3.6. от 27 августа 2020 г. -Т.: Университет, 2020.
4. Толковый словарь по предмету Педагогика (коллектив авторов). –Т.: “Наука”, 1989.
5. Идея национальной независимости: основные понятия и принципы. –Т.: «Узбекистан», 2000.
6. Тиллашев Х.Х. Общие педагогические и дидактические идеи ученых энциклопедистов Ближнего и Среднего Востока эпохи средневековья. –Ташкент: «Наука», 1989.
7. Хашимов К. История педагогики. Учебник для студентов высших учебных заведений и университетов. –Ташкент: «Учитель», 1996.
8. Авлони А. Сад этикета и морали. –Ташкент: «Учитель», 1994.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада умумтаълим мактабларида таълим жараёни такомиллаштириш диалектиканинг ривожланиш қонуниятларига мувофиқ узлуксиз жараён эканлиги кўриб чиқилди.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается, что совершенствование образовательного процесса в общеобразовательных школах представляет собой непрерывный процесс в соответствии с законами развития диалектики.

SUMMARY

This article considers that the improvement of the educational process in schools is a continuous process in accordance with the laws of the development of dialectics.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA QORAQALPOQ BOLALAR XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH – DAVR TALABI

A.A.Bekimbetova – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

V.J.Seitmuratova – *doktorant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Taynch so'zlar xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti, topishmoqlar, tez aytishlar, badiiy so'z ijodi, kognitiv fikrlash, intuitsiya, tafakkur, mantiqiy o'ylash, kompetensiya, ijodiy kompetent.

Ключевые слова: фольклор, детская литература, загадки, скороговорки, художественное словотворчество, художественное выражение, познавательное мышление, интуиция, мышление, логическое мышление, компетентность, творческая компетентность.

Key words: folklore, children's literature, riddles, tongue twisters, artistic word creation, artistic expression, cognitive thinking, intuition, thinking, logical thinking, competence, creative competence.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. ... Folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu–insoniyatning bolalik qo'shig'idir» degan edi.

Kelajagimizning poydevori-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga aloqador ekanligini unutmasligimiz zarur. Buning uchun har bir ota-ona, ustoz va tarbiyachi har bitta bola timsolida eng dastlab shaxsni ko'rishi zarur. Ana ushbu oddiy talabdan kelib chiqib, farzandlarimizni erkin va keng fikrlash doirasiga ega bo'lgan, ongi yetuk, komil insonlar

etib komolotga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi shart deb qabul etishimiz zarur. Bu esa, ta'lim-tarbiya ishini bir-biridan ajratmagan holda, zich aloqada olib borishni taqazo etadi.

Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini yuzaga chiqarishimiz zarur. Ushbu maqsadda, maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'qish jarayonlarining sifatini tubdan yaxshilashimiz zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev kelajakka mo'ljallangan eng jiddiy va ahamiyatli vazifalar haqidagi Oliy Majlisga bergan Murojaatnomasida belgilab berildi [1]. Haqiqatan, biz bolalarimizni bilimli, atroflicha yetuk inson etib kamol toptirishimiz uchun eng avvalo, maktabgacha davrdagi

ta'lim sifatiga farqli e'tibor qaratishimiz zarur.

Mana shunday imkoniyatlar yaratilayotgan bir paytda mamlakatimizda hozirgi davrda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, xalqimizning madaniy meros durdonalari bo'lgan xalq og'zaki ijodi orqali bolaning tafakkurini rivojlantirish, bobo-momolarimizdan bizga qadar yetib kelgan milliy qadriyatlarimizni mazmunini anglash, ularning so'z mahoratiga bo'lgan ixlosini kuchaytirish, badiiy so'z ijodi orqali Vatanga muhabbat tuyg'ulari bilan tarbiyalashdek ulug' maqsadlarimizni ko'rishimizga bo'ladi. Bu bolalar adabiyotidagi badiiy so'z ijodining, albatta xalq pedagogikasida ham ahamiyati g'oyat ulug' deb hisoblaymiz.

Qoraqalpoq bolalar folklori-xalq og'zaki ijodi asarlarining katta bir sohasini tashkil etadi va o'z imkoniyatiga ko'ra kichik janriy turlarga bo'linadi. Bu janriy turlar bolalar folklorining tabiatini belgilab beradi. Hozirgi folklor ilm-fanida bolalar folklori asosan ikkiga b'olib qaraladi. 1) ayalash poeziyasi 2) bolalar so'z mahorati va o'yinlari. Ayalash poeziyasi kattalar tomonidan aytiladigan va bolalarga mo'ljallangan bo'lsa, bolalar folklori poeziyasi-voyaga yetmaganlarning bevosita o'zlari bajaradigan nazmiy namunalardan iborat. Bunday badiiy asarlar orqali bolalar tabiatni va hayotni bilishga intiladi va ular haqida dastlabki tushunchalar badiiy obrazlar bilan bola ongida aks etadi. Bolaning yosh xususiyatiga qarab o'zlashtirilib boriladigan bunday badiiy asarlar bolaning dunyoqarashini va so'zlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi [2:11].

Qoraqalpoq xalqi ham boshqa xalqlar kabi bolalarini kichkina paytidan boshlab ilmga, badiiy so'z mahoratiga, ilm-fanga, hunarmandchilikka o'rgatgan. Gapga chechanlik, hushchaqhaqlikka, baxshilikka qiziqirib, har xil aytishlar musobaqalarida yengib chiqish yo'llarini nasihat qilib, ularning shaxs bo'lib shakllanishida xalq og'zaki ijodlarida har bitta janrdan o'z o'rnida, tarbiyaviy xarakterda foydalanib kelgan.

Bolalarning ongiga xalq og'zaki ijodi orqali o'z milliylikini singdirish va bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelgan folklor ijodi va badiiy asarlarni o'rgatib borganimizda bolada so'z boyligi oshadi, o'z ona tiliga hurmati oshadi va shu asosida to'g'ri gapirishni o'rganadi, atrof-muhit haqida estetik ko'zqarashlari shakllanadi. Bolalarning so'z-mahoratiga bo'lgan qiziqishi kuchaygan sayin yakka-yolg'iz ijodiy qirralari ham ko'rina boshlaydi. Bu ayniqsa ularning so'zga chevarliklarini ko'rsatuvchi topishmoqlar bilan tez aytishlarda aks etadi.

Topishmoqlar - bu hal bo'lishi zurur bo'lgan so'rov yoki qo'shiq tarzidagi qiziqarli masala bo'lgan intellekt turi. Odatda topishmoqlar chalg'ituvchi ravishda ko'rinish oladi. Ko'plari ijodiy, standart emas fikrlashni taqozo etadigan, ikkiyoqlama yoki yashirin ma'noga ega. Ularning javoblari ko'pincha kutilmagan va qiziqarli bo'lib bolalar uni yechishda juda ehtiyotkorlik bilan o'ylashni taqozo etadi. Demak, bolada kognitiv fikrlashi, intuitsiya va yana diqqati, o'ylash va bilish kompetensiyasi rivojlanadi. Bilish faoliyati jarayonida bolaning ko'rgazmali va mantiqiy o'ylashi, anglashi, ijodiy kompetentining rivoji paydo bo'ladi. Topishmoqlar bolalardan o'tkir zehnilik, bilimlilik, aqllilik va zukkolikni taqozo etibgina qolmay bolaning intellektual rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, shuning bilan birga tez javob berish qobiliyatiga chorlaydi, zukkolikka talpintiradi.

Tez aytishlar mazmunida mavhum tushunchalar yoki aniq ma'lumotlarga ega emas tushunchalar ko'proq uchrashadi, u milliy muhitimizdagi vazifasi bo'yicha til, so'zlash qobiliyatimizni chiqitiruvchi qurol. Tez aytishda so'zlarni tez va yanglishmay aytiladigan talablarni o'z ichiga oladi [2:9]. Darhaqiqat, tez aytish bola so'zni adashmay to'g'ri talqin etishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatadigan metodik ko'nikma xizmatini bajaradi va

ikkinchi tarafidan bolalar so'zlarni adashib kulguga qoladi va tez aytish bunday vaqtda hazil xizmatini bajaradi, hamda bolada til mushaklari normal rivojlanadi.

Bolalar qo'shiqlarida bolalarning dunyo tanishi, atrof muhitga munosabati, kelajak haqida orzulari va yana qo'shiqni o'yin bilan bog'lashlari ochiq ko'rinish turadi. Bolalar qo'shiqlarining xususiyatlarini N.Davqaraev bunday deb yozadi: " U xususiyatlar eng oldi bilan jamoa bo'lib aytiladi. Ikkinchidan qo'shiq turini xalq oyinlarini o'ynagan vaqtlarda aralashtirib aytiladi, uchunchidan savol javob sifatida aytiladi". Masalan, "Avelemen-duvelemen" bolalarning boshini jam qilib, o'yinni tashkil etishda yanada ular orasida do'stlik rishtalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bundan boshqa o'yinlar, shuningdek, "chaqirma" harakatli o'yini bolalarni do'stlikka, jamoa bo'lib o'ynashga undavdi:

Kelin-ho o'yn baslavmiz,

Keltekki zingir taslavmiz,

Oaqshir alip aspannan.

Qarama-qarsi uslavmiz. [2:507]

-deb bir-birini chaqirib o'ynaydigan harakatli o'yin turiga kiradi.

Ertaklar bolaning xayol surishini kengaytiradi, ruhiy dunyosini boyitadi, muvaffiyatga, maqsadga erishish, odillik, halollik, nomus kabi insonparvarlik fazilatlariga tarbiyalaydi. Mutaxassislarning aytishicha, ertak bolaning dunyoqarashini kengaytirib, uning hayotga degan ongli munosabatini shakllantirar ekan. Bola ertak tufayli yaxshilik va yomonlik, mehribonlik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rganadi dedik. Bu tushunchalar bolaning ongida bir umr saqlanib qoladi va katta bulganida ezgu ishlarni qilishga odatlanadi. Qoraqalpoq xalq ertaklarida ham mana shunday tarbiyaviy xarakterga ega bir qancha g'oyalar bor. Ertaklar tufayli bola eng avvalo o'zlarinig ona tilini, milliylikini, xalqning kelib chiqish tarixini va boshqa milliy qadriyatlarini o'rganadi. Dostonlar bo'lsa bolalarni botirlikka, jasurlikka va yana o'z Vataninig or-nomusini himoyalashga chorlaydi. Shunday ekan, xalq og'zaki ijodidagi har bitta janr bola tarbiyasida o'zgacha muhim xarakterga ega demakdir.

Hozirgi paytda qoraqalpoq bolalar adabiyotiga hissa qo'shgan yozuvchi va shoirlarning roli katta bo'lib, ularning adabiy janrlarda albatta o'ziga mos tarbiyaviy xususiyatlar o'rin olgan. Binobarin, biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy so'z qobiliyatlarini rivojlantirishda, ona-tiliga bo'lgan mehr-muhabbatni uyg'otishimizda, o'z milliylikimizni e'zozlagan holda qoraqalpoq bolalar adabiyoti haqida bilimlarni o'z o'rnida va o'z vaqtida berishimiz zarur.

Bugungi kun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qoraqalpoq xalqining xalq og'zaki ijodi, qoraqalpoq xalqining bolalar adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan bolalar yozuvchi va shoirlari va ularning badiiy asarlari kam o'rgatilib kelmoqda. Mamlakatimizning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" o'quv dasturi bo'yicha bolalarga ta'lim-tarbiya berish yo'lga qo'yilgan. Ushbu dasturga qo'shimcha variativ dastur asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning ikkinchi yarimida bola bilan badiiy adabiyot bilan shug'ullanish uchun tarbiyachilarga qulaylik yaratish maqsadida, qoraqalpoq bolalar adabiyotiga tegishli ilmiy tarafdan tasdiqlangan, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqarishimiz zarur.

Yakunlab aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarga har tarafama ta'lim-tarbiya berish va qoraqalpoq bolalar xalq og'zaki janrlarni o'zlashtirish va shu orqali bolalarda ijodiy kompetensiyalar hosil qilish, tarbiyachilar uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish, ertaklarning qoraqalpoq tilidagi multimedia namunalari yaratish, o'zimizning milliy qadriyatlarimizni saqlagan holda zamonaviy, qoraqalpoq bolalar folklorini kelasi avlodga toza holda yetkazib berishda o'z ulushimizni qo'shgan bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2019-yil uchun mo'ljallangan eng dolzarb, ahamiyatli vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Muroajaatnomasidagi so'zi.
2. "Qaraqalpaq folklori", 99-tom. –Nukus: "Ilim" 2015-yil. 11-b.

REZYUME

Maqolada qaraqalpaq xalq og'zaki ijodining har bir janrining maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxs sifatida kamol toptirishdagi tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Bolalar folkloridagi har bir janr bolaga dunyoni bilishga, boshqalar bilan munosabatda bo'lishga, jamiyatga moslashishga, kognitiv fikrlashga, atrof-muhit haqida dastlabki bilimlarni olishga yordam beradi. Bolalar folkloridagi har bir janrning maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy jihatdan boy, ona tilida erkin fikr yuritiladigan, o'z xalqini tushunadigan, shaxsiy fikriga ega bo'lib kamol topishida beqiyosdir. Bu folklor janrlari ajdodlarimizdan meros bo'lib, ularni kelajak avlodga sof, shaffof ko'rinishda yetkazish, milliy merosimizni davom ettirish bizning tarbiyaviy va o'rgatish burchimizdir.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуется воспитательное значение каждого жанра каракалпакского фольклора в формировании и личности дошкольников. Каждый жанр в детском фольклоре помогает ребенку познавать мир, взаимодействовать с другими, адаптироваться к обществу, мыслить познавательно, получать начальные знания об окружающей среде. Роль каждого жанра в детском фольклоре неопределима в становлении дошкольников развитыми, культурно богатыми, способными свободно мыслить на родном языке, понимать свой народ, иметь личное мнение. Эти фольклорные жанры унаследованы от наших предков, и наша воспитательная и обучающая обязанность – передать их следующему поколению в чистом, прозрачном виде, продолжить наше национальное наследие.

SUMMARY

The article explores the educational significance of each genre of Karakalpak folklore in the development of preschoolers as individuals. Each genre in children's folklore helps a child to learn about the world, interact with others, adapt to society, think cognitively, and gain initial knowledge about the environment. The role of each genre in children's folklore is invaluable in the development of preschool children, culturally rich, able to think freely in their native language, understand their people, and have a personal opinion. These folklore genres are inherited from our ancestors, and our educational and teaching duty is to pass them on to the next generation in a pure, transparent form, to continue our national heritage.

JISMONIY MADANIYAT SHAKLLANISHIDA SHAXSIY SOG'LIQNI SAQLASHNING TA'RKIBIY QISMLARI

A.K.Bekmurzaev – *assistent o'qituvchi*

M.A.Kulmurzaev – *talaba*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: salomatlik, mashg'ulot, sportchilar, yuklama, sog'lom turmush, ko'rsatkichlar, stress, dinamika.

Ключевые слова: здоровье, тренировка, спортсмены, нагрузка, здоровая жизнь, показатели, стресс, динамика.

Key words: health, training, sportmen, load, healthy life, indicators, stress, dynamics.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi ПФ-6099 sonli sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Salomatlik - bu ma'lum bir ijtimoiy va iqtisodiy muhitda irsiy salohiyatni amalga oshirish jarayonida rivojlanadigan va insonga har xil sharoitlarda sog'lom bo'lishiga imkon beradigan murakkab va shu bilan birga yaxlit, ko'p o'lchovli dinamik holat Sog'lom sog'liq - bu ma'lum bir kishining genetik jihatdan aniqlangan tipologik xususiyatlariga, o'ziga xos sharoitlariga mos keladigan hayot tarzidir. Hayot va sog'lig'ini shakllantirish, saqlash va mustahkamlash insonning ijtimoiy-biologik funksiyalarini to'liq amalga oshirishga qaratiladi.

Salomatlik madaniyati - insonning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan umumiy madaniyatining bir qismi.

Shaxsiy salomatlik madaniyati insonning hayot yo'li, qarashlari bilan tavsiflanadi. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish shaxsni hisobga olgan holda insonning holatini faol ravishda tartibga solish tananing xususiyatlari, o'zini o'zi himoya qilish dasturlarini amalga oshirish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, sog'liqning barcha tarkibiy qismlarining uyg'un birligiga va shaxsning yaxlit rivojlanishiga olib keladi. Shaxsiy salomatlik madaniyatini shakllantirish jarayoni birinchi navbatda ta'lim tizimida amalga oshiriladi va ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir [1:5].

Sog'lom turmush tarzi asoslarini o'rgatish metodikasi bilan birga, mavjud ta'lim tizimi ko'pincha yetakchilik qiladi. Bolalar va yoshlarning sog'lig'i yomonlashishiga, ta'lim jarayonining kuchayishi, kompyuter o'yinlariga

bo'lgan ishtiyoq, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun imkoniyatlarning yetishmasligi maktab o'quvchilari va talabalarning jismoniy harakatsizligining asosiy sabablari. Sog'liqni saqlash madaniyati tizimli-tarkibiy yondashuv nuqtayi nazaridan quyidagi omillarning o'zaro ta'sirining ajralmas tizimi shakllanadi: tizimni shakllantirish, tizimni to'ldirish va tizimni konditsionerlash.

Eng muhim subyektiv omillar - bu sog'liq va sog'lom turmush tarzi uchun motivatsiya. Shaxs faoliyatining namoyon bo'lishi uchun zarur bo'lgan irodaviy fazilatlarining mavjudligi, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini anglashga intilish, sog'liq va sog'lom turmush tarziga nisbatan o'z inersiyasini yengish bilan belgilanadi.

Shaxsiy salomatlik madaniyatining quyidagi tarkibiy qismlari ajralib turadi:

- motivatsion va shaxsiy komponent - roli haqida g'oyani ta'minlaydigan me'yorlar va qadriyatlar to'plamini o'z ichiga oladi va sog'liqni saqlash madaniyatining ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni;

- sog'lom turmush tarzi uchun motivatsiyani rivojlantirish va sog'liq darajasini yaxshilash, shaxsning xususiyatlari va fazilatlarini yaxshilash, sog'liqqa nisbatan faol hayotiy pozitsiyani ta'minlash;

- kognitiv komponent – jismoniy va aqliy o'zini rivojlantirishning valeologik bilimlari va ko'nikmalarining amaliy yo'naltirilgan tizimi;

- faoliyat komponenti - shaxsan mazmunli va individual yo'naltirilgan sog'lom turmush tarzi orqali salomatlikning ma'lum darajasiga erishishni ta'minlaydi [1:10].

Biologik va ijtimoiy taraqqiyotning birligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlash jismoniy tarbiyaning sog'liqni saqlash madaniyatini shakllantirishdagi rolini tarbiyaviy, ta'lim va dam olish vazifalari belgilaydi. Ko'p funksional jismoniy madaniyatning mohiyati shundaki, u insonning jismoniy, estetik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan, jismoniy faollikdan foydalangan holda ijtimoiy foydali tadbirlarni tashkil etish, sog'lom dam olish, kasalliklarning oldini olish, dam olish va reabilitatsiya hisoblanadi [2:10].